

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
FILOLOGIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

M.A.Jo'rayeva	
Safarnomaning paydo bo'lishi va janr sifatida shakllanishi	5
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla Sher lirikasida formal an'analar	8
S.A.Odilova	
Badiiy asarda ikkinchi darajali personajlar talqini	12
B.N.Isakova	
O'tkir Hoshimov va Jek London ijodida mavzular ko'lami qiyosiy tahlili	15
Sh.R.Maxamadjonova	
Adabiyotda aforizm tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	19
M.S.A'zamjonova	
Kitobxon kodi: badiiy asarda psixologizm	22
G.Xaydarova	
"Ona lochin vidosi" romanida kolliziya konflikt	26
М.Б.Ботирова	
XX asr o'zbek adabiyotida psixologik taxlilning o'ziga xos xususiyatlari	28
A.Baba	
Comparison of eastern and western variants of the <i>Koroglu</i> epic	31

TILSHUNOSLIK

I.M.Azimov	
Qayum ramazon va uning "O'zbek tilining birlashgan imlo qoidalari" risolasi xususida	37
M.F.Yo'ldasheva	
Jek London asarlari tarjimalarining lingvopragmatik tadqiqi	43
U.T.Muratbaeva	
Lexical and semantic features of the expression of ethical concepts in the karakalpak language	50
S.B.Hafizov	
The semantic network of "head" in english and uzbek based on lexical field comparison	54
R.T.O'rinboyeva	
Qo'shrabot tumani shevasining fonetik xususiyatlari	59
A.B.Vosiljonov	
Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratishning umumiy nazariy asoslari	63
M.V.Ahmadova	
Syllable rhythm and prosody: the theory of classification of languages by rhythm and the manifestation of isochrony in the poetic system	68
M.N.Najmiddinova	
Linguopragmatic analysis of phraseological units and idioms relating to the concept of hospitality in english and uzbek	73
N.A.Beknazarova, M.Y.Madiyeva	
The definition and key components of communicative competence in language learning	85
X.A.Sarimsokov	
Sport sharhlarini asosini tashkil qiluvchi leksik birliklarning diaxron tadqiqi	88
S.A.Raxmonberdiyeva	
Qurilish sohasiga oid ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarning lingvistik tahlili	93
X.A.Asqaraliyeva	
Media-kommunikativ muloqotda paralingvistik vositalar	96
H.X.Bozorov	
O'zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlil	100



UO'K: 82-94:82-1

SAFARNOMANING PAYDO BO'LISHI VA JANR SIFATIDA SHAKLLANISHI

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И ФОРМИРОВАНИЕ ПУТЕВЫХ ЗАМЕТОК КАК ЖАНРА

THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF THE TRAVELOGUE AS A GENRE

Jo'rayeva Manzura Ahronqulovna 

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya

Maqolada safarnoma janrining paydo bo'lishi, janr sifatida shakllanishi, jahon va o'zbek adabiyotidagi janr sifatidagi o'rni, sayyohatnoma janridan farqli tomonlarini tahlilga tortilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются возникновение жанра путевых заметок, его формирование как жанра, место этого жанра в мировой и узбекской литературе, а также анализируются отличительные особенности по сравнению с жанром путешествий.

Abstract

The article examines the emergence of the travelogue genre, its formation as a literary form, its place in world and Uzbek literature, and analyzes its distinctive features compared to the travel memoir genre.

Kalit so'zlar: safarnoma, sayyoh, janr, sayyohatnoma, metajanr, adabiy tur, xususiyat.

Ключевые слова: сафарнома, путешественник, жанр, саяхатнама, метажанр, литературный род, особенности.

Key words: safarnoma, traveler, genre, sayyohatnoma, metagenre, literary type, characteristics.

KIRISH

Har sohada bo'lgani kabi adabiyotshunoslikda ham o'zgarishlar, yangilanishlar bo'lib turibdi. Ayniqsa, texnika fan rivojlangan bir paytda adabiyotshunoslikda yangi janrlar paydo bo'lyapti. Bunga bugungi kunning ijodkorini tezkorlik jadallik bilan asarlar yaratishidir. Yaratilgan asarlarga munosib nom berish, uni janrga ajratish muhimdir. Janrlar taraqqiyoti kundan kunga rivojlanib, o'sib borayapti. Bugungi kunda jahon adabiyotshunoslari tomonidan safarnoma janri bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarini umumiyashtirish, safarnoma janri tadqiqi orqali jadid adabiyoti namoyandalari ijodini chuqurroq o'rganish, safarnomani alohida janr ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish muhim masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotshunoslikda safarnoma va sayyohatnoma janri metajanr sifatida baholanayotgan tadqiqotlar ham mavjud. "Ko'pincha "sayohat adabiyoti"ga qo'llaniladigan "janr" atamasi "sayohat adabiyoti"ni belgilash uchun unchalik ham mos kelmaydi, chunki sayohat adabiyoti an'anaviy janr va janr shakllarining katta to'plamidan iboratdir, – deb yozadi Y.Ponamaryov o'z tadqiqotida, – sayohatni "metajanr" deb atash mumkin. ...So'nggi o'n yillikda janr va adabiy tur o'rtasidagi yetishmayotgan oraliq atama sifatida kristallashgan "metajanr" tushunchasi bizga yaqinroqdir" [1. 8-bet]. A.Vejbiskaya o'z tadqiqotida ushbu masalaga oydinlik kiritish kerakligi borasida shunday fikr bildiradi: "Biroq so'nggi yillardagi asarlarda ham metajanr terminologik aniqlikka ega emas. Biz "metajanr"dan "metamatn" atamasi bilan yaqinlikda foydalanishni taklif qilamiz" [2. 403 -bet]. Y.Ponomarev esa quyidagi jihatga e'tiborni qaratadi: "Bir tomondan, metajanr bir necha jihatdan an'anaviy janrga o'xshaydi – tasvir mavzusi, materialning semantik imkoniyatlari, uni tashkil qilish va dunyoga nisbatan ma'lum(baholash) pozitsiyasiga ko'ra ajralib turadi". [1. 10-bet] Sayohat adabiyoti o'zining erkinligi tufayli janr chegaralaridan chiqib ketishi, turli janrlar elementlarini o'zida mujassam etishi olimning bu nazariy fikrlarining shakllanishiga sabab bo'lgan. U o'z tadqiqotida sayohatning muayyan janrlarni o'zlashtirishi, "aniqrog'i, ulardan o'z xohishiga ko'ra foydalanishi"ga

ishora qiladi. Biroq sayohat metajannrning eng munozarali misollaridan biri ekanini, bu holatda uni aspektlarga bo'lish orqali metajannr ekanini dalillashga kirishadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbek adabiyotshunosligida va umuman o'zbek tilida sayohat tafsilotlarini aks ettiruvchi "sayohatnoma", "safarnoma" atamalarining mavjudligi hamda ularning an'anaviy asarlarga nisbatan qo'llanilib kelinadi.

Adabiyot tarixini kuzatar ekanmiz, necha asrlar davomida yaratilgan asarlar orasida safarnoma janri turli davrlarda o'zining boshqa janrlar orasida tutgan o'rni, shakl va mazmuni bilan ajralib turadi. Yevropa adabiyotida safarnoma janrining ilk namunalari Homerning "Odissey" dostoni bilan bog'liq bo'lsa, Sharqda esa Nosir Xisravning "Safarnoma"si misol bo'la oladi. Dastlab folklor bilan bog'liqlikda rivojlangan safarnomaning ilk kurtaklari keyinchalik yo'l xotiralari asosida yuzaga kelgan afsona va rivoyatlar bilan o'z taraqqiyotining keyingi bosqichiga o'tdi. Safarnoma janrining keyingi davrlaridagi yangi mazmun va shaklda namoyon bo'lishiga, shubhasiz, ziyorat safarlarining ta'siri katta bo'lgan. Jumladan, Sharqda haj safari asosida yaratilgan asarlar, haj taassurotlari, badialar, haj kundaliklari, hajnomalardir.

Sharqda safarnoma janri o'zining qadimiy tarixiga ega. U dastlab noma atamasi bilan atalgan bo'lib, "Noma" atamasi fors tilidan kirib kelgan. Sharq adabiyotida adabiy janr sifatida ilk bor XI asrlarda she'riy shaklda yaratilgan va asosan yoru-do'stlarga bag'ishlangan yozishmalardan tashkil topgan. "Noma" keng ma'noda umuman asarga, aksari holda biror hodisa, shaxs hayotini atroficha yoritgan badiiy, tarixiy-siyosiy kitob va risolalarga nisbatan ham qo'llanilgan. Bunda asarlar tarkibidagi "noma" so'zi aksar hollarda ma'lum bir hodisa, voqea haqidagi asar [4. 170-bet] degan mazmunni bildirgan va asar mazmuniga qarab, "Muhabbatnoma", "Hajnoma", "Safarnoma" deb yuritila boshlangan. XI asr asrda yaratilgan Nosir Xisravning mashhur "Safarnoma" [5]si ana shunday asardir. "Uning ushbu asari insonlarning turli illatlardan, diniy aqidaparastlik va tor dunyoqarashdan ozod bo'lish, bilimga va komillikka intilish g'oyasi bilan sug'orilgan" [6.16-bet]. Tarix zarvaraqlariga nazar solar ekanmiz, unda Sharqda bitilgan safar tafsilotlarining chuqur ildizlarini ko'ramiz. Islom sivilizatsiyasi tarixida geografik tadqiqotlar olib borgan Sharq olimlari o'z asarlarida safar qilgan mamlakatlar kengliklari, turli xalqlarning urf-odatlar va marosimlari, ibratli jihatlari haqida qimmatli ma'lumotlar joy olgan sayohat tafsilotlari bayon etilgan kitoblar ham yaratishgani ma'lum. "Islom mualliflarining geografiya sohasidagi asarlari boy mazmuni va xilma-xilligi bilan ajralib turardi. Shunday olimlar orasida "Yakubi "Al- Buldan" (Shaharlar) kitobida sayohatlari haqida bayon etadi. O'z asarida muallif asosan tegishli davlatlar aholisining hikoyalariga asoslangan... mashhur sayohatchi, geograf va tarixchi Abul Hasan Mas'udiyning (X asr) "Ketab al-Kazaya val-Tajarrub" ("Voqealar va sinovlar to'g'risida kitob") asari – uning sayohatlari natijasi bo'lib, bugungi kungacha saqlanib qolmagan. Ibn Xordadbeh VIII asr Eron olimi, mashhur "Al-Masalik Val- Mamalek" ("Yo'llar va mamlakatlar") kitobining muallifi... Beruniyning "Tahqiq Malil Hind" kitobi ("Hindiston bo'yicha tadqiqotlar") aslida aniq geografik yoki tarixiy tadqiqotlar emas. Bu ishonchli ilmiy ma'lumotlarga asoslangan ensiklopedik asar bo'lib, u geografiya va etnografiya sohasidagi musulmonlar ilmiy fikrining durdonasi hisoblanadi" [7]. Shu bilan birga, mashhur arab geografi va sayohatchi Al Idrisiyning "Nazhat al-Mushtak" [8] kitobini ham ilk sayohatnomalar namunalariidan biri deyish mumkin. Turkshunoslik ilmining asoschisi, filolog olim Mahmud Koshg'ariy (XI asr) 15 yil turkiy xalqlar yashaydigan o'lkalarni kezib, bu yerlardagi qabila va urug'lar, ularning kelib chiqishi va nomlanishi, joylashish o'rinlari, urf- odatlari, ayniqsa, til xususiyatlarini sinchiklab o'rganadi va natijada bir qancha geografik, etnografik ma'lumotlar hamda o'zi tuzgan dunyo xaritasi ilova qilingan dunyoga mashhur "Devonu lug'otit turk" [9] asarini yaratadi.

Sharqning mashhur sayyohlaridan biri Ibn Battuta bo'lib, u jahon madaniyati va tafakkuri rivojida o'rta asr arab geograflari hamda Abu Hamid al-G'artoni, Ibn Fadlon, Ibn Jubayrlardek sayyohlar orasida o'zining XIV asrga mansub "Sayohatnoma"si bilan alohida o'rin tutgan. Uning "Sayohatnoma" asari o'rta asr mamlakatlari, shaharlari, ularning xalqlari madaniyati, turmush tarziga oid g'oyat qimmatli, ko'p o'rinlarda yagona ma'lumotlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Ibn Battuta yigirma ikki yoshida haj qilish uchun Makkaga borish, shu bahonada u yerning allomalaridan dars olish ilinjida safarga otlangan. Jasur, biroq kambag'al yosh sayohatchi yolg'iz, yayov Tilimson shahriga yetib keladi. Bu yerdan Milyonaga borib, unda tunislik bir guruh

ADABIYOTSHUNOSLIK

savdogarlarga qo'shiladi. Shu bilan uning sayohati boshlanadi. Sharqshunos olim N.Ibrohimov Ibn Battutaning O'rta Osiyoga sayohatini izchil tadqiq etgan bo'lib, maqolalarining birida akademik I.Y.Krachkovskiyning jahongashta sayyoh haqidagi quyidagi e'tirofini keltiradi: "Barcha musulmon mamlakatlarini kezib chiqqan so'nggi eng buyuk sayyoh" [9]. Uning "Sayohatnoma" [10] asari o'rta asr Sharq mamlakatlariga oid qimmatli etnografik ma'lumotlari bilan boshqalardan ajralib turadi. XIV asrda yaratilgan ushbu asarda muallif o'z ko'zi bilan ko'rgan har bir makonning o'ziga xos tomonlarini katta qiziqish va sinchkovlik bilan o'rganib, ko'rgan- kechirganlarini, o'z sayohati davomida boshqalardan eshitgan voqea va ma'lumotlarni ham batafsil bayon etadi.

XULOSA

Ilmiy asoslardan kelib chiqib, Sharq va G'arb adabiyotidagi safarnoma janri sayyohatnoma bilan sinonim sifatida qo'llansa-da, janr nuqtaiy nazaridan farqli tomonlari mavjud. Olimlarning fikricha, alohida emas, bitta janr ekanligi, G'arbda sayyohatnoma, Sharqda esa safarnoma ekanligi aytilgan. Biroq janr xususiyatlaridan kelib chiqib, bular alohida janr ekanligi izohlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пономарев Е. Р. Типология советского путешествия: «Путешествие на Запад» в русской литературе 1920- 1930-х годов. Автореферат дисс. док. филол. Санкт-Петербург, 2014
2. Вежбицкая А. Метатекст в тексте // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста. – М.: 1978. – С. 403
3. Салаев Ф. Курбонниёзов Т. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.: Янги аср авлоди. – 2010. – Б.170.
4. Хисрав Н. Сафарнома (форсийдан Ф.Каримов таржимаси) – Т.: Шарқ – 2003
5. Мамадназаров М. Архитектурная Одиссея. «Сафарнома» Насира Хусрава. – М.: Прогресс-Традиция, 2017. – С. 16.
6. Ислом цивилизацияси. 14-боб. География ва саёҳатлар. // <https://www.old.islamonline.uz/index.php/item/9724-islom-civilizaciyasi-14-bob-geografiya-va-sayohatlar>
7. 300 путешественников и исследователей. Биографический словарь. – Москва : Мысль, 1966. – 271 с. // <http://i.geo-site.ru/node/45>
8. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотут турк. 3 жилдлик. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Солиҳ Муталлибоев. – Т.: Фан. 1960
9. Иброҳимов Н. Машҳур жаҳонгашта. / Жаҳон адабиёти, 2011, №10. Б. 95.
10. Ибн Батута. Саёҳатнома. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.360